O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 4 - iyul 183-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Shirin shahar “Nurobod” mahalla fuqarolar yig‘ini, “Navro‘z” ko‘chasi bo‘yidan 1 dona suv minorasi, 1 dona jihozlar saqlanadigan bino qurish va himoya zonasiga jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-408-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 543-sonli qarori asosida hamda yer ajratish materiallari viloyatdagi vakolatli organlarning ijobiy xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10 va 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasining 2022-yil 15-noyabrdagi 01/1728-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasiga Shirin shahar “Nurobod” mahalla fuqarolar yig‘ini, “Navro‘z” ko‘chasi bo‘yining shahar hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan 1 dona suv minorasi, 1 dona jihozlar saqlanadigan bino qurish va himoya zonasi bilan 16 m x 18 m

o‘lchamda A1724410006/1-raqamli 0,0288 gektar yer uchastkasi jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (A.Kushanov)ga:

Ajratilgan yer uchastkasida qurilishi rejalashtirilgan 1 dona suv minorasi, 1 dona jihozlar saqlanadigan bino qurish uchun belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazilishi hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda 1 dona suv minorasi, 1 dona jihozlar saqlanadigan bino qurish va himoya zonasi uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari R.Boboyev, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Mahmudaliyev**